

**HUDUDIY ISHLAB CHIQARISH MAJMUASINING SHAKLLANISHI VA  
FAOLIYAT YURITISH XUSUSIYATLARI****Xayitmuradov Anvarjon G'aybullayevich***Terniz davlat universiteti**Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezesda hududda ishlar chiqarish majmuasining shakllanishi va faoliyat yuritish xususiyatlari haqida bayon etlgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ishlab chiqarish, mamlakat, majmua, hudud, davlat, korxona, paxta, iqtisodiyot, elektr, kombinatsiya.*

Bugungi kunda mamlakatimizdagi ishlab chiqarish uchun keng ko'lamli ishlar amalgam oshirilmoqda. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda diplomatik aloqalar olib borilmoqda. O'zbekiston so'nggi besh yilda dunyoga o'zining iqtisodiy va sarmoyaviy imkoniyatlarini namoyish qilib kelmoqda. Avvalo hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishiga ahamiyat berishimiz kerak. Iqtisodiy geografiyadagi bu tushuncha ham uning tub mohiyatini belgilaydi. Ma'lum bo'lishicha, u ma'lum hududda xo'jalik tarmoqlarining joylanishi, majmua shaklida faoliyat ko'rsatishini bildiradi. Hududda ishlab chiqarish korxona va tarmoqlari oddiy, birga joylashgan yoki ular o'zaro aloqadorlikda rivojlanib borayotgan bo'ladi. Huddi shu ikkinchi ma'noda hududiy ishlab chiqarish majmualari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning eng samarali shakli hisoblanadi. Ishlab chiqarish muassasalarini ham alohida-alohida, tarqoq joylashtirgandan ko'ra ularni bir-biriga yaqin qurish katta samara beradi. Misol tariqasida paxta tozalash zavodlarini misol qilib olishimiz mumkin. Paxta tozalash zavodlari odatda paxta yetishtiruvchi hududlarda quriladi. Agar ularga yaqin joyda yog' zavodi qurilsa, yana ayni muddao bo'ladi, ushbu korxonalar chiqindilari asosida esa chorvachilik fermalarini ham rivojlantirsa bo'ladi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari ma'lum bir joyda ishlab chiqarish korxona tarmoqlarini yagona infrastruktura hamda aholi joylashuvi va tizimlari asosida barpo etish va ularni o'zaro uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirishni anglatadi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari kombinatlashuv jarayoni asosida vujudga keladi. Barchamizga ma'lumki ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etishning bu shaklida bir xom ashyodan bir necha xil mahsulot yetishtirish yoki bir hududda – joyda turli korxonalarini qurish mumkin. Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha turlichadir. Ular tog'-kon, qayta ishslash, qishloq xo'jaligi, agroindustrial, rekreatsiya-turizm, dengiz xo'jaligi, poytaxt shaharlar ta'sir doirasida shakllanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning jahon ahamiyatiga ega bo'lган nazariy yutuqlardan biridir. Eng avvalo bunda N.N.Kolosovkiyning xizmatini ko'rsatishimiz mumkin. XX asrning yigirmanchi yillarda GOELRO, ya'ni Rossiyanı elektrlashtirish davlat rejası doirasida I.G.Aleksandrov DneproGES loyihasini ishlab chiqish jarayonida rayon kombinatlari haqidagi o'zining nazariyasini yaratdi. O'ttizinchı yillarda esa bu muhim masalani u aniqlashtirdi. chuqur o'rganib rayon ishlab chiqarish kombinatlarini barpo etish lozimligini ta'kidladi. Hududiy

ishlab chiqarish muassasalarini jonlantirish imkonini beradigan eng muhim belgilarga quyidagilar kiradi.

Butun xalq xo'jaligi doirasida muayyan ixtisoslashuviga ega bo'lgan ishlab chiqarishlar o'zaro bog'liq tizimining mavjudligi:

Hududning umumiyligi va cheklanganligi;

Mahalliy resurslardan kompleks foydalanish mumkinligi;

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning birligi.

Ichki ishlab chiqarish-iqtisodiy aloqalari hududiy ishlab chiqarishni shakllantirishda muhim rol o'yndaydi. Ularni bir necha guruhlarga bo'lishimiz mumkin. Turli xil xom ashyo, yarim fabrika va detallardan bita tayyor mahsulot ishlab chiqarishda birga qatnashuvchi korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyalash bo'yicha aloqalar; Kombinatsiyalash bo'yicha aloqalar ishlab chiqarishning o'zaro harakati, bunda biron-bir xom ashydadan ayni vaqtida boshlang'ich xom ashyonи izchil qayta ishslash, undan kompleks foydalanish va chiqindilarni o'tilizatsiyalash yo'li bilan turli xil tayyor mahsulotlar olish mumkin; Xom ashyo, yonilg'i, yordamchi materiallar, asbob-uskunalar va tayyor mahsulotni o'z ichiga oluvchi moddiy-texnika aloqalar; Hudud umumiyligi, ya'ni korxonalar transport-jug'rofiy mavqeining birligi bilan shartlangan va turli korxonalar muayyan xizmat ko'rsatuvchi qurilmalardan foydalanganda vujudga keladigan aloqalar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.

3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganig 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruza, 2016-yil 7-dekabr. -T.: O'zbekiston, 2017.